SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# SURXONDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

## 2022- YILNING YANVAR-SENTABR OYLARIDA

Dastlabki ma'lumotlar

| | 2021- y. yanvar-sentabr | 2022- y. yanvar-sentabr |
|---|---|---|
| Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mlrd. so‘m | 7 528,7 | 9 298,1 |
| Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’atlari, % da | 118,7 | 114,3 |
| Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so‘m | 2 784,8 | 3 361,3 |
| Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmalarning o‘sish sur’atlari, % da | 116,3 | 111,7 |

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 769,4** mlrd. so‘mga oshib, **9 298,1** mlrd. so‘mga yetdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga (**118,7 %**) nisbatan o‘sish sur’ati **114,3** % ni tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

**Xizmatlar** iste’molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o‘zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko‘maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari

*(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)*

| | Hajmi, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da 2021- yil yanvar-sentabr oylariga |
|---|---|---|
| **Xizmatlar - jami** | **9 298,1** | **114,3** |
| shu jumladan: | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 442,8 | 126,2 |
| Moliyaviy xizmatlar | 1 920,0 | 124,3 |
| Transport xizmatlari | 1 367,3 | 111,0 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 1 269,2 | 109,1 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 295,9 | 105,8 |
| Savdo xizmatlari | 3 391,2 | 109,8 |
| Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 225,6 | 112,4 |
| Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 413,2 | 126,7 |
| Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 142,6 | 93,6 |
| Ijara xizmatlari | 205,9 | 108,3 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar | 247,1 | 109,8 |
| Shaxsiy xizmatlar | 259,1 | 109,3 |
| Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 153,8 | 120,9 |
| Boshqa xizmatlar | 233,6 | 115,4 |

Koʻrsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining oʻsishidagi asosiy omil, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **26,2** % ga, moliyaviy xizmatlar **24,3** % ga, transport xizmatlari **11,0** %, savdo xizmatlari **9,8** % ga, ta’lim sohasidagi xizmatlar 126,7 % ga oʻsishi hisoblanadi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida jami koʻrsatilgan xizmatlar hajmi oʻtgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxlardagi oʻsish sur’ati **114,3** % ni tashkil etdi.

## 2022- yil yanvar-sentabr oylarida Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha koʻrsatilgan bozor xizmatlarining oʻtgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxlardagi oʻsish sur’ati yuqori boʻlgan xizmat turlari, %da




Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha koʻrsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar-sentabr oylarida bu xizmatlarning ulushi **36,5** % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori koʻrsatkichlar ta’lim sohasidagi xizmatlar boʻyicha (**26,7** %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**26,2** %), shuningdek moliyaviy xizmatlar (**24,3** %) qayd etildi.

Sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmida oʻsish sur’ati **0,9** % ni tashkil yetdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha xizmatlar tarkibi, % da**

*(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)*



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ta’lim xizmatlar sohasida yuqori o‘sishga erishildi (**26,7** %). 2021- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati bilan solishtirganda farq **-8,7** punktni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr va 2021- yillari uchun aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o‘sish sur’atlari o‘rtasidagi maksimal ijobiy tafovut **6,1** punkt darajasida qayd etildi.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’atlari, % da



## Savdo xizmatlari *(yanvar-sentabr oylarida)*

| | *O‘sish sur’ati, % da* | *Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m* |
|---|---|---|
| 2022- y. | 109,8 | 3 391,2 |
| 2021- y. | 108,3 | 2 741,3 |

| 2022- y. yanvar-sentabr | Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| Termiz shahri | 636,4 | 113,0 |
| Oltinsoy | 173,7 | 108,6 |
| Angor | 175,7 | 106,9 |
| Boysun | 119,6 | 108,5 |
| Bandixon | 98,5 | 108,5 |
| Muzrabot | 215,9 | 108,5 |
| Denov | 458,2 | 110,9 |
| Jarqo‘rg‘on | 207,6 | 109,2 |
| Qumqo‘rg‘on | 202,3 | 108,8 |
| Qiziriq | 165,3 | 110,0 |
| Sariosiyo | 214,3 | 110,6 |
| Termiz | 153,1 | 106,1 |
| Uzun | 162,4 | 108,7 |
| Sherobod | 210,9 | 109,3 |
| Sho‘rchi | 197,3 | 109,2 |

**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste’mol sohasiga o‘tishini ta’minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma’lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste’molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo‘linadi.



## *Savdo xizmatlarining tarkibi, % da*
*(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)*

1. **Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar**
2. **Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari**
3. **Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta’mirlash xizmatlarini qo‘shgan holda**




## *Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi, % da*
*(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)*

| | Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta’mirlash xizmatlarini qo‘shgan holda | Ulgurji savdo xizmatlari | Chakana savdo xizmatlari |
|---|---|---|---|
| **Surxondaryo viloyati** | **4,5** | **13,0** | **82,5** |
| Termiz shahri | 5,7 | 18,4 | 75,9 |
| tumanlar: | | | |
| Oltinsoy | 3,8 | 7,7 | 88,5 |
| **Angor** | **3,6** | **3,5** | **92,9** |
| Boysun | 3,9 | 2,1 | 94,0 |
| **Bandixon** | **3,9** | **0,4** | **95,7** |
| Muzrabot | 2,8 | 34,6 | 62,6 |
| **Denov** | **6,4** | **19,1** | **74,5** |
| Jarqo‘rg‘on | 4,3 | 4,6 | 91,1 |
| **Qumqo‘rg‘on** | **4,2** | **4,0** | **91,8** |
| Qiziriq | 3,2 | 21,0 | 75,8 |
| **Sariosiyo** | **3,9** | **12,5** | **83,6** |
| Termiz | 4,5 | 7,3 | 88,2 |
| **Uzun** | **3,9** | **2,6** | **93,5** |
| Sherobod | 3,7 | 16,6 | 79,7 |
| **Sho‘rchi** | **3,2** | **5,1** | **91,7** |

# Transport xizmatlari
*(yanvar-sentabr oylarida)*

| | O‘sish sur’ati, % da | Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m |
|---|---|---|
| 2022 – y. | 111,0 | 1 367,3 |
| 2021– y. | 118,7 | 1 161,9 |



Transport xizmatlari hajmining o‘sishi, yuk va yo‘lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu o‘z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog‘ining kengayishi, qurilish loyihalari hajmini yanada kengaytirishga, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog‘liq.

| 2022- y. yanvar-sentabr | Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| Termiz shahri | 231,8 | 113,2 |
| Oltinsoy | 64,1 | 107,7 |
| Angor | 72,0 | 110,4 |
| Boysun | 59,4 | 112,0 |
| Bandixon | 44,7 | 109,1 |
| Muzrabot | 75,1 | 112,8 |
| Denov | 158,1 | 114,7 |
| Jarqo‘rg‘on | 105,9 | 108,2 |
| Qumqo‘rg‘on | 83,8 | 106,5 |
| Qiziriq | 66,0 | 107,8 |
| Sariosiyo | 92,0 | 110,5 |
| Termiz | 84,0 | 121,8 |
| Uzun | 68,0 | 107,6 |
| Sherobod | 83,6 | 106,8 |
| Sho‘rchi | 78,8 | 109,2 |

# Avtomobil transporti xizmatlari
*(yanvar-sentabr oylarida)*

| | *O‘sish sur’ati, % da* | *Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m* |
|---|---|---|
| 2022- y. | 109,1 | 1 269.2 |
| 2021- y. | 116,9 | 1 093.5 |



| 2022- y. yanvar-sentabr | Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| Termiz shahri | 228.8 | 117.2 |
| Oltinsoy | 62.2 | 105,4 |
| Angor | 70.9 | 109,8 |
| Boysun | 57.0 | 108,2 |
| Bandixon | 43.2 | 105,9 |
| Muzrabot | 65.0 | 109,5 |
| Denov | 151.8 | 114.2 |
| Jarqo‘rg‘on | 81.4 | 105.8 |
| Qumqo‘rg‘on | 80.8 | 105.7 |
| Qiziriq | 63.8 | 105.5 |
| Sariosiyo | 87.5 | 106.3 |
| Termiz | 56.4 | 105.2 |
| Uzun | 66.1 | 105.3 |
| Sherobod | 81.9 | 105.8 |
| Sho‘rchi | 72.4 | 105.6 |

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xizmatlarga to‘g‘ri keladi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.



# Moliyaviy xizmatlar
*(yanvar-sentabr oylarida)*

| | *Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m* | *O‘sish sur’ati, % da* |
|---|---|---|
| 2022– y. | 1 920.0 | 124.3 |
| 2021– y. | 1 518.2 | 128.8 |



| 2022- y. yanvar-sentabr | Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| Termiz shahri | 864.5 | 124,5 |
| Oltinsoy | 33.2 | 125.6 |
| Angor | 40.3 | 123.4 |
| Boysun | 28.9 | 127.8 |
| Bandixon | 17.1 | 130.8 |
| Muzrabot | 45.6 | 120.2 |
| Denov | 255.3 | 125.5 |
| Jarqo‘rg‘on | 98.5 | 125.7 |
| Qumqo‘rg‘on | 155.8 | 124.4 |
| Qiziriq | 43.1 | 123.1 |
| Sariosiyo | 108.7 | 123.0 |
| Termiz | 44.6 | 116.8 |
| Uzun | 51.1 | 125.2 |
| Sherobod | 66.6 | 123.9 |
| Sho‘rchi | 66.7 | 124.4 |

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to‘lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlari uchun to‘lanadigan haq hisobiga ko‘ra olinadi.



# Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
*(yanvar-sentabr oylarida)*

| | *O'sish sur'ati, % da* | *Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm* |
|---|---|---|
| 2022- y. | 126.2 | 442.8 |
| 2021- y. | 120,1 | 349.4 |



| 2022- y. yanvar-sentabr | Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da |
|---|---|---|
| Termiz shahri | 97,2 | 125,5 |
| Oltinsoy | 23,2 | 125,6 |
| Angor | 18,0 | 126,8 |
| Boysun | 17,3 | 129,0 |
| Bandixon | 9,9 | 129,4 |
| Muzrabot | 19,4 | 129,1 |
| Denov | 56,5 | 126,3 |
| Jarqo'rg'on | 30,5 | 129,5 |
| Qumqo'rg'on | 30,8 | 125,7 |
| Qiziriq | 15,9 | 125,9 |
| Sariosiyo | 28,4 | 126,5 |
| Termiz | 16,0 | 121,0 |
| Uzun | 23,6 | 124,4 |
| Sherobod | 26,0 | 125,0 |
| Sho'rchi | 30,1 | 126,0 |

Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtda AKT sohasidagi xizmatlar hajmi to‘rt xonali darajadagi IFUT-2 bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlarning statistik tasniflagichi (MST) mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) va “Statistical classification of products by activity in the European Economic Community” – CPA–2008 ning statistik tasniflagichiga muvofiq, ayrim turdagi xizmatlar hajmidan, barcha turdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha Xalqaro standart tarmoq tasnifida (XSTT-4) keltirilgan tushuntirishlarga muvofiq shakllantirilmoqda.

| OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to‘plami | Hajmi, mlrd. so‘m | Umumiy hajmdagi ulushi, % da |
|---|---|---|
| **Jami** | **442,8** | **100,0** |
| shu jumladan: | | |
| AKT xizmatlari sektori | 425,6 | 96,1 |
| Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori | 17,2 | 3,9 |

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida AKT xizmatlari sektori muqobil to‘plamning umumiy tarkibida **96,1** % ni tashkil etdi. AKT sektorida telekommunikatsiya xizmatlari ustunlik qilmoqda – **99,0** %.

Muqobil to‘plamning umumiy hajmida kontent va ommaviy axborot vositalari sektorining ulushi **3,9** % ni tashkil etdi. Uning tarkibida eng katta hajm Kitoblar, davriy nashrlar, nashr qilish bo‘yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlariga to‘g‘ri keldi – **69,2** %.

| OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to‘plami | Hajmi, mlrd. so‘m | Umumiy hajmdagi ulushi, % da |
|---|---|---|
| **AKT sektori xizmatlari** | **425,6** | **100,0** |
| shu jumladan: | | |
| Telekommunikatsiya xizmatlari | 421,3 | 99,0 |
| Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar | 4,3 | 1,0 |
| | | |
| **Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori** | **17,2** | **100,0** |
| shu jumladan: | | |
| Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo‘yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari | 11,9 | 69,2 |
| Kino-, videofilmlar va televideniye dasturlari ishlab chiqarish bo‘yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo‘yicha xizmatlar | 0,9 | 5,2 |
| Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo‘yicha xizmatlar | 1,1 | 6,4 |
| Boshqa axborot xizmatlari | 3,3 | 19,2 |

# Ta’lim sohasidagi xizmatlar
*(yanvar-sentabr oylarida)*

| | *O‘sish sur’ati, % da* | *Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m* |
|---|---|---|
| 2022- y. | 126,7 | 413,2 |
| 2021- y. | 135,4 | 303,9 |



| 2022- y. yanvar-sentabr | Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| Termiz shahri | 208,4 | 130,0 |
| Oltinsoy | 6,2 | 95,8 |
| Angor | 6,8 | 115,6 |
| Boysun | 5,0 | 114,7 |
| Bandixon | 1,4 | 108,6 |
| Muzrabot | 5,0 | 123,5 |
| Denov | 73,6 | 128,0 |
| Jarqo‘rg‘on | 11,6 | 120,2 |
| Qumqo‘rg‘on | 8,4 | 120,0 |
| Qiziriq | 7,8 | 119,2 |
| Sariosiyo | 9,8 | 124,3 |
| Termiz | 24,5 | 123,2 |
| Uzun | 7,8 | 117,2 |
| Sherobod | 17,6 | 126,4 |
| Sho‘rchi | 19,3 | 119,8 |

2022- yil yanvar-sentabr oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi **413,2** mlrd. so‘mni yoki ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,4** % ini tashkil etdi. 2021- yil yanvar-sentabriga nisbatan o‘sish sur’ati **126,7** % ni tashkil etgan.

***Taqqoslash uchun***: 2021- yil yanvar-sentabrda xizmatlar hajmi **303,9** mlrd. so‘mni tashkil etgan. 2020- yilga nisbatan esa **35,4** % ga o‘sish qayd etilgan.

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar *(yanvar-sentabr oylarida)*

| | *O‘sish sur’ati, % da* | *Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m* |
|---|---|---|
| 2022– y. | 105,8 | 295,9 |
| 2021– y. | 109,4 | 226,1 |



| 2022- y. yanvar-sentabr | Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| Termiz shahri | 88,5 | 108,2 |
| Oltinsoy | 10,8 | 105,0 |
| Angor | 14,8 | 105,8 |
| Boysun | 9,2 | 103,2 |
| Bandixon | 4,6 | 104,0 |
| Muzrabot | 8,4 | 107,6 |
| Denov | 28,9 | 106,4 |
| Jarqo‘rg‘on | 14,5 | 105,5 |
| Qumqo‘rg‘on | 12,4 | 107,0 |
| Qiziriq | 9,2 | 102,6 |
| Sariosiyo | 24,2 | 100,6 |
| Termiz | 25,3 | 102,2 |
| Uzun | 10,0 | 108,5 |
| Sherobod | 17,8 | 106,5 |
| Sho‘rchi | 17,3 | 107,3 |

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha qo‘yil-gan ustamadan tash-qari, ovqat tayyor-lashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsu-lotlar qiymatini o‘z ichiga oluvchi aylan-ma qiymatdir.

**Yashash bo‘yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta’minlash bo‘yi-cha ko‘rsatilgan xiz-matlar (mehmonxo-nalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o‘z ichiga oladi.

# Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar *(yanvar-sentabr oylarida)*

| | *Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m* | *O‘sish sur’ati, % da* |
|---|---|---|
| 2022- y. | 142,6 | 93,6 |
| 2021- y. | 139,6 | 168,5 |



| 2022- y. yanvar-sentabr | Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| Termiz shahri | 78,3 | 86,8 |
| Oltinsoy | 1,7 | 100,7 |
| Angor | 2,1 | 100.0 |
| Boysun | 9,3 | 104,6 |
| Bandixon | 0,7 | 106,5 |
| Muzrabot | 1,4 | 102,8 |
| Denov | 12,7 | 107,7 |
| Jarqo‘rg‘on | 5,8 | 101,3 |
| Qumqo‘rg‘on | 4,6 | 103,0 |
| Qiziriq | 1,8 | 105,1 |
| Sariosiyo | 2,4 | 102,7 |
| Termiz | 6,6 | 101,0 |
| Uzun | 2,3 | 102,4 |
| Sherobod | 8,6 | 100,8 |
| Sho‘rchi | 4,3 | 103,1 |

2022- yil yanvar-sentabr oylarida sog‘liqni saqlash xizmatlari hajmi **142,6** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,5** % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabrga nisbatan o‘sish sur’ati **93,6** % ni tashkil etgan.

***Taqqoslash uchun***: 2021- yil yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmatlar hajmi **139,6** mlrd. so‘mni yoki ularning umumiy hajmining **1,7** % ini tashkil etgan.

## 2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

| | Hajmi, mlrd. so'm | Umumiy hajmdagi ulushi, % da | O'sish sur'ati, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan % da |
|---|---|---|---|
| **Surxondaryo viloyati[1)]** | **9 298,1** | **100,0** | **114,3** |
| Termiz shahri | 2 644,0 | 28,4 | 116,1 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oltinsoy | 369,1 | 4,0 | 112,3 |
| Angor | 395,3 | 4,3 | 112,3 |
| Boysun | 292,2 | 3,1 | 113,1 |
| Bandixon | 209,4 | 2,3 | 112,8 |
| Muzrabot | 418,6 | 4,5 | 113,1 |
| Denov | 1 175,5 | 12,6 | 116,2 |
| Jarqo'rg'on | 542,7 | 5,8 | 113,1 |
| Qumqo'rg'on | 568,9 | 6,1 | 113,1 |
| Qiziriq | 361,4 | 3,9 | 112,7 |
| Sariosiyo | 554,9 | 6,0 | 113,9 |
| Termiz | 406,0 | 4,4 | 113,4 |
| Uzun | 383,4 | 4,1 | 112,6 |
| Sherobod | 496,6 | 5,3 | 112,9 |
| Sho'rchi | 480,1 | 5,2 | 113,6 |

2022- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush – **28,4** % (2021- yil yanvar-sentabr oylarida – **37,4** %)ni Termiz shahri tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining nisbatan eng past ko'rsatkichlari Bandixon tumanida – **2,3** % (2021- yil yanvar-sentabr oylarida – **2,3** %) qayd etildi.

## Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari *(yanvar-sentabr oylarida)*

| | O‘sish sur’ati, % da | Xizmatlar hajmi, ming. so‘m |
|---|---|---|
| 2022- y. | 111,7 | 3 361,3 |
| 2021- y. | 116,3 | 2 784,8 |

| 2022- y. yanvar-sentabr | Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| Termiz shahri | 13 774,7 | 112,0 |
| Oltinsoy | 1 990,1 | 110,0 |
| Angor | 2 855,1 | 110,0 |
| Boysun | 2 424,9 | 111,0 |
| Bandixon | 2 636,0 | 109,8 |
| Muzrabot | 2 822,7 | 110,7 |
| Denov | 2 913,0 | 113,4 |
| Jarqo‘rg‘on | 2 372,4 | 110,6 |
| Qumqo‘rg‘on | 2 315,7 | 110,7 |
| Qiziriq | 3 018,4 | 110,4 |
| Sariosiyo | 2 528,7 | 111,5 |
| Termiz | 5 014,9 | 111,0 |
| Uzun | 2 119,9 | 110,3 |
| Sherobod | 2 440,4 | 110,4 |
| Sho‘rchi | 2 185,2 | 110,9 |

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 361,3** ming so‘mga yetdi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish sur’ati **111,7** % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ushbu ko‘rsatkich hududlar bo‘yicha Termiz shahrida **13 774,7** ming so‘mdan Oltinsoy tumanida **1 990,1** ming so‘mgachani tashkil etdi.

## 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**

**18 878 birlik**

**109,7%**

**2021- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati**

**1 673 birlikka**

**2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o‘sishi**



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug‘urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

## 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*




***Taqqoslash uchun:*** 2021- yilning **1**- oktabr holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **60,5** % ni tashkil etgan.

## 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi, % da

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**48,7** %).

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi korxona va tash-kilotlarning ulushi **9,7** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **4,5** % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilot-larning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,9** % ga teng bo‘ldi.

Sog‘liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tash-kilotlarning ulushi **2,5** % ni tashkil etdi.



# Xizmat ko‘rsatish sohasidagi kichik biznes *(yanvar-sentabr oylarida)*

| | *O‘sish sur’ati, % da* | *Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m* |
|---|---|---|
| 2022- y. | 111,6 | 6 053,0 |
| 2021- y. | 116,6 | 5 021,0 |



| 2022- y. yanvar-sentabr | Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| Termiz shahri | 1 178,6 | 112,5 |
| Oltinsoy | 299,7 | 111,2 |
| Angor | 295,1 | 107,6 |
| Boysun | 240,0 | 111,0 |
| Bandixon | 181,4 | 111,4 |
| Muzrabot | 337,8 | 111,7 |
| Denov | 748,8 | 113,0 |
| Jarqo‘rg‘on | 388,0 | 110,3 |
| Qumqo‘rg‘on | 366,6 | 111,0 |
| Qiziriq | 293,6 | 111,8 |
| Sariosiyo | 393,5 | 113,5 |
| Termiz | 283,1 | 108,2 |
| Uzun | 299,3 | 111,4 |
| Sherobod | 380,3 | 111,4 |
| Sho‘rchi | 367,2 | 112,0 |

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi **6 053,0** mlrd. so‘mga teng bo‘lib, ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ularning ulushi **65,1** % ini tashkil etdi. Uning **25,7** % ini kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etadi.

## 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumot

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



| Soni | Sonini o‘sishi |
|---|---|
| 14 951 birlik | 1 515 birlikka |
| 56,1 % | 111,3 % |
| Umumiy sonidagi ulushi | O‘sish sur’ati |

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning o‘sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

### Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*




Xizmatlar sohasi statistikasi bo‘limi
Tel.: 76-225-65-91